

SUG‘DDA SHAHARSOZLIK MADANIYATINING SHAKLLANISHI

Qahorov Ramziddin

Oriental Universiteti Samarqand kampusi Tarix yo‘nalishi

1- kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadimgi Sug‘d hududida shaharsozlik madaniyatining shakllanish jarayoni Samarqand Sug‘di misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Zarafshon vohasining tabiiy-geografik omillari, sug‘orma dehqonchilik va irrigatsiya tizimlarining rivoji, Afrosiyob hamda Ko‘ktepa singari arxeologik yodgorliklarning urbanizatsiya jarayonidagi o‘rni hamda siyosiy markazlashuvning shahar madaniyatiga ta‘siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Sug‘ud, Samarqand Sug‘di, Afrosiyob, Ko‘ktepa, urbanizatsiya, irrigatsiya, shaharsozlik, davlatlilik.

Аннотация. В статье анализируется процесс формирования градостроительной культуры древнего Согда на примере Самаркандского Согда. Рассматриваются природно-географические условия Зарафшанской долины, развитие орошаемого земледелия и ирригационных систем, роль Афрасиаба и Коктепа в ранней урбанизации, а также влияние политической централизации на становление городской культуры.

Ключевые слова: Согд, Самаркандский Согд, Афрасиаб, Коктепа, урбанизация, ирригация, градостроительство.

Abstract. This article examines the formation of urban planning culture in ancient Sogd on the example of Samarkand Sogd. It analyzes the natural-geographical conditions of the Zarafshan valley, the development of irrigated agriculture and irrigation systems, the role of Afrasiab and Koktepa in early urbanization, and the impact of political centralization on urban culture.

Keywords: Sogd, Samarkand Sogd, Afrasiab, Koktepa, urbanization, irrigation, urban planning, statehood.

Kirish

Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixida Sug‘d alohida o‘rin tutadi. Zarafshon vohasida joylashgan bu tarixiy-madaniy hudud qadimdan o‘troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo aloqalari rivojlangan markazlardan biri bo‘lgan. Sug‘udning markaziy qismi hisoblangan Samarqand vohasi esa mintaqadagi urbanizatsiya jarayonlarining eng qadimgi o‘choqlaridan biri sifatida ajralib turadi. Shu bois Sug‘udda shaharsozlik madaniyatining

shakllanishini o'rganish nafaqat mahalliy tarix, balki butun Markaziy Osiyoning qadimgi sivilizatsion taraqqiyotini anglash uchun muhimdir⁵⁷.

So'nggi yillarda Samarqand vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, xususan Afrosiyob va Ko'ktepa yodgorliklari bo'yicha olingan natijalar, shahar madaniyatining ildizlari Ahmoniylar davridan ancha oldin shakllanganini ko'rsatmoqda⁵⁸. Bu esa Sug'uddagi shaharsozlikni tashqi siyosiy ta'sir natijasi sifatida emas, balki ichki xo'jalik, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyot mahsuli sifatida talqin qilish zaruratini kuchaytiradi.

Mavzuning dolzarbligi: Sug'dda shahar madaniyatining shakllanishi masalasi tarixshunoslikda uzoq vaqt davomida asosan Samarqandning qadimgi tarixi bilan bog'liq holda yoritilgan. Biroq urbanizatsiya jarayonini faqat bir markaz bilan cheklab tushuntirish yetarli emas. Samarqand vohasining boshqa yodgorliklari, irrigatsiya tizimlari, qishloq manzilgohlarining evolyutsiyasi va ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari birgalikda tahlil qilingandagina Sug'dshaharsozlik madaniyatining umumiy manzarasi tiklanadi⁵⁹.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Sug'd shahar madaniyatining genezisi masalasi bugungi kunda qadimgi davlatchilik, urbanizatsiya va mintaqaviy sivilizatsiyalar tarixini qayta ko'rib chiqishda tayanch masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Samarqand vohasidagi arxeologik qatlamlar, mudofaa devorlari, xo'jalik inshootlari va hunarmandchilik qoldiqlarining yangi talqinlari mazkur mavzuni qayta yoritishni taqozo etadi [4].

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Mazkur maqolaning maqsadi — Sug'd hududida shaharsozlik madaniyatining shakllanish omillari va bosqichlarini Samarqand Sug'di misolida tahlil qilishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- 1) Zarafshon vohasining tabiiy-geografik sharoitlari va irrigatsiya tizimlarining urbanizatsiyaga ta'sirini aniqlash;
- 2) Afrosiyob va Ko'ktepa yodgorliklari materiallari asosida ilk shahar markazlarining shakllanishini ko'rsatish;
- 3) Hunarmandchilik, savdo va siyosiy markazlashuvning shahar madaniyatidagi o'rini baholash;
- 4) Ahmoniylar davrining Sug'd shahar madaniyati taraqqiyotidagi o'rini qayta ko'rib chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqolada tarixiy-qiyosiy, tizimli-tahliliy va manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida M.X. Isamiddinovning "Истоки городской культуры Самаркандского Согда" asari olindi. Shuningdek, Samarqand Sug'di,

⁵⁷ Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002.

⁵⁸ Буряков Ю.Ф. Древний Самарканд и проблемы ранней урбанизации Согда. – Ташкент

⁵⁹ Шишкин В.А. Афрасиаб – древний Самарканд. – Москва: Наука

Afrosiyob, Ko‘ktepa, irrigatsiya tarixi va Sug‘d madaniyatiga oid tadqiqotlar qiyosiy ravishda tahlil qilind⁶⁰. Arxeologik ma’lumotlar tarixiy-geografik omillar va urbanizatsiya nazariyalari bilan bog‘liq holda sharh qilindi.

1. Sug‘d hududining tabiiy-geografik omillari va urbanizatsiya uchun zamin

Sug‘d tarixiy-madaniy hududi, avvalo, Zarafshon vodiysi bilan uzviy bog‘liqdir. Zarafshon vohasi tog‘ tizimalari, unumdor allyuvial tuproqlar, suv resurslari va iqlim sharoitining qulayligi bilan qadimdan dehqonchilikka moslashgan hudud bo‘lib kelgan. Ana shu omillar vohada erta o‘troq hayot tarzining shakllanishi va aholi manzilgohlarining barqarorlashuvida muhim rol o‘ynagan [3].

Daryo va uning irmoqlari bo‘yida joylashgan qadimgi manzilgohlar, bir tomondan, dehqonchilikni yuritish uchun suv bilan ta’minlangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, voha ichidagi almashinuv va tashqi aloqalar uchun qulay sharoit yaratgan. Shu sababli Sug‘uddagi urbanizatsiyaning dastlabki bosqichini tabiiy-geografik sharoitlardan ajratib bo‘lmaydi. Aynan Zarafshon vohasining resurs salohiyati keyinchalik irrigatsiya tizimlarining kengayishi va yirik aholi markazlarining shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan⁶¹.

2. Sug‘orma dehqonchilik va irrigatsiya tizimi – shahar madaniyatining iqtisodiy poydevori

Sug‘dda shaharsozlik madaniyatining shakllanishida sug‘orma dehqonchilik hal qiluvchi omil bo‘lgan. Zarafshon daryosi suvlaridan foydalanish dastlab tabiiy o‘zanlar va mavsumiy toshqinlarga tayanib amalga oshirilgan bo‘lsa, aholi sonining ortishi bilan sun’iy sug‘orish tizimlari barpo etila boshlagan⁶². Kichik ariqlar, tarmoqlangan kanallar, suv taqsimlash inshootlari va dehqonchilik maydonlarining kengayishi vohada ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirgan.

Irrigatsiya tizimlarining murakkablashuvi shunchaki xo‘jalik taraqqiyoti emas, balki tashkiliy boshqaruvning kuchayishini ham anglatadi. Katta hajmdagi sug‘orish ishlarini amalga oshirish mehnatni muvofiqlashtirish, suvni taqsimlash va kanallarni saqlash bo‘yicha markazlashgan nazoratni talab qilgan⁶³. Shu tariqa, irrigatsiya tizimi bir vaqtning o‘zida ham iqtisodiy o‘sish, ham siyosiy markazlashuv, ham shahar markazlarining vujudga kelishi uchun poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

3. Ilk qishloq manzilgohlaridan shahar markazlariga o‘tish

⁶⁰ Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002.

⁶¹ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва

⁶² Гулямов Я.Г. История орошения Узбекистана с древнейших времен до наших дней. – Ташкент

⁶³ Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002

Sug‘dda shaharsozlikning dastlabki bosqichlari suv manbalariga yaqin joylashgan qishloq tipidagi manzilgohlarning evolyutsiyasi bilan bog‘liqdir. Arxeologik topilmalar xom g‘ishtdan qurilgan uylar, xo‘jalik hovlilari, don saqlash joylari va ayrim hollarda mudofaa inshootlari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi [1]. Bu belgilar oddiy dehqonchilik jamoalarining asta-sekin murakkablashib, ma‘muriy va iqtisodiy jihatdan kuchaya boshlaganidan dalolat beradi.

Ayrim manzilgohlar vaqt o‘tishi bilan atrofdagi hududlarga nisbatan ustunlikka erishgan. Ular hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqariladigan, almashinuv amalga oshiriladigan, diniy marosimlar va boshqaruv jarayonlari to‘plangan markazlarga aylangan. Aynan shu bosqichda qishloq manzilgohlarining shahar tipidagi markazlarga o‘tishi kuzatiladi [6]. Demak, Sug‘dda shahar madaniyati birdan paydo bo‘lgan hodisa emas, balki qishloq xo‘jaligi manzilgohlarining uzoq davom etgan transformatsiyasi mahsulidir.

4. Afrosiyob – Sug‘d shahar madaniyatining eng qadimgi markazi

Afrosiyob Sug‘d shaharsozlik madaniyati tarixida alohida ahamiyatga ega. U qadimgi Samarqandning arxeologik yadrosi bo‘lib, bu yerda aniqlangan qatlamlar miloddan avvalgi VIII–VII asrlardayoq mustahkamlangan manzilgoh mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi⁶⁴. Bu natijalar Samarqand tarixini faqat Ahmoniylar davri bilan bog‘lash mumkin emasligini ko‘rsatadi.

Afrosiyobdagi qazishmalarda xom g‘ishtdan qurilgan turar joylar, qalin mudofaa devorlari, xo‘jalik inshootlari, kulolchilik va boshqa hunarmandchilikka oid qoldiqlar aniqlangan⁶⁵. Bu topilmalar Afrosiyob oddiy qishloq emas, balki iqtisodiy, siyosiy va ehtimol diniy markaz vazifasini bajarganini ko‘rsatadi. Miloddan avvalgi VI–V asrlarga kelib esa uning hududi kengaygan, ichki tuzilmasi murakkablashgan va shaharsozlik unsurlari yanada ravshanlashgan⁶⁶.

5. Ko‘ktepa va Samarqand vohasidagi urbanizatsiya jarayonlari

Ko‘ktepa yodgorligi Samarqand vohasida urbanizatsiya jarayonlarini yoritishda muhim manbalardan biridir. Bu yodgorlikdagi stratigrafik qatlamlar va me‘moriy qoldiqlar vohada markazlashgan aholi punktlari Samarqandning keyingi yiriklashuvidan avval ham mavjud bo‘lgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi⁶⁷. Ko‘ktepa ma‘muriy-diniy markaz xususiyatiga ega bo‘lib, undagi mudofaa tizimi va ichki rejalashtirish elementlari vohada shaharsozlik an‘analari bir necha markazlarda parallel rivojlanganini anglatadi.

⁶⁴ Буряков Ю.Ф. Древний Самарканд и проблемы ранней урбанизации Согда. – Ташкент.

⁶⁵ Маршак Б.И. Материалы по истории и культуре Согда. – Москва

⁶⁶ Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002

⁶⁷ Grenet F., Rapin C. Исследования по археологии Самаркандского Согда и Коктепа.

Ko‘ktepa materiallari shuni ko‘rsatadiki, Sug‘d urbanizatsiyasini faqat bitta markaz – Afrosiyob orqali tushuntirish yetarli emas. Aksincha, vohada bir nechta tayanch markazlar bo‘lgan va ularning o‘zaro aloqasi, iqtisodiy va siyosiy integratsiyasi natijasida Samarqand Sug‘dida barqaror shahar madaniyati shakllangan ⁶⁸.

6. Hunarmandchilik, savdo va shahar iqtisodiyotining rivojlanishi

Urbanizatsiya jarayonining muhim ko‘rsatkichlaridan biri ixtisoslashgan hunarmandchilikning rivojlanishidir. Sug‘d hududidan topilgan sopol idishlar, temir qurollar, mehnat asboblari, zargarlik buyumlari va boshqa topilmalar bu yerda malakali ustalar faoliyat yuritganini ko‘rsatadi ⁶⁹. Kulolchilikda charxning qo‘llanishi, metallga ishlov berish, zargarlik va bezak buyumlarining xilma-xilligi shahar iqtisodiyotining murakkablashganidan dalolat beradi.

Savdo ham Sug‘d shahar madaniyatining shakllanishida katta rol o‘ynagan. Samarqand vohasi geografik jihatdan qulay chorrahada joylashgani sababli u vohalararo va mintaqalararo almashinuv markaziga aylangan⁷⁰. Savdo nafaqat iqtisodiy aloqalarni kuchaytirgan, balki yangi g‘oyalar, me‘moriy usullar va madaniy ta’sirlarning kirib kelishiga ham xizmat qilgan. Shu bois hunarmandchilik va savdo Sug‘dshaharsozlik madaniyatining iqtisodiy bazasi bilan bir qatorda uning madaniy qiyofasini ham shakllantirgan.

7. Siyosiy markazlashuv va davlatlilik unsurlarining shakllanishi

Sug‘dda shahar madaniyatining shakllanishi siyosiy markazlashuvsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Keng irrigatsiya tarmoqlarini boshqarish, mudofaa devorlarini barpo etish, jamoa mehnatini tashkil qilish va savdo yo‘llarini nazorat etish boshqaruvning murakkab shakllarini talab qilgan [5]. Bunday sharoitda suv taqsimotini nazorat qiluvchi guruhlar, harbiy qatlam va ma‘muriy boshqaruv unsurlari shakllangan.

M.X. Isamiddinovning xulosalariga ko‘ra, Samarqand Sug‘dida urbanizatsiya va davlatchilik jarayonlari bir-biridan ajralmas holda rivojlangan⁷¹. Ya’ni shahar markazlarining vujudga kelishi boshqaruv apparatining shakllanishiga turtki bergan bo‘lsa, siyosiy markazlashuv ham o‘z navbatida shaharsozlikning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Bu jarayon Sug‘dda shahar madaniyatini oddiy manzilgohlar yig‘indisi emas, balki murakkab ijtimoiy-siyosiy tizim sifatida ko‘rish imkonini beradi.

8. Ahmoniylar davri va Sug‘dda shahar madaniyatining yangi bosqichi

⁶⁸ Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002

⁶⁹ Буряков Ю.Ф. Древний Самарканд и проблемы ранней урбанизации Согда. – Ташкент.

⁷⁰ Шишкин В.А. Афрасиаб – древний Самарканд. – Москва: Наука

⁷¹ Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002

Ilmiy adabiyotlarda uzoq vaqt davomida Samarqandning shakllanishi Ahamoniylar davri bilan bog‘lab talqin qilingan. Biroq Afrosiyob va boshqa yodgorliklardan olingan yangi stratigrafik ma‘lumotlar Samarqandning Ahamoniylar davridan oldin ham shakllangan markaz bo‘lganini ko‘rsatmoqda⁷². Shuning uchun Ahamoniylar davrini Sug‘d shahar madaniyatining boshlanish nuqtasi emas, balki uning keyingi taraqqiyot bosqichi sifatida baholash to‘g‘riroqdir.

Ahamoniylar davrida Samarqandning ma‘muriy-siyosiy mavqei kuchaygan, tashqi aloqalar kengaygan va shahar hayoti yangi bosqichga ko‘tarilgan⁷³. Ammo bu taraqqiyot bo‘sh joyda emas, balki avvaldan mavjud urbanistik negiz ustida yuz bergan. Shu jihatdan qaraganda, Sug‘d shaharsozlik madaniyati mahalliy ichki rivojlanish maxsuli bo‘lib, tashqi siyosiy ta’sirlar uning ayrim bosqichlarini tezlashtirgan, xolos.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Sug‘dda shaharsozlik madaniyatining shakllanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lgan. Birinchidan, Zarafshon vohasining tabiiy-geografik salohiyati erta dehqonchilik va barqaror manzilgohlar uchun asos yaratgan. Ikkinchidan, irrigatsiya tizimlarining murakkablashuvi ortiqcha mahsulot, ijtimoiy tabaqalanish va boshqaruv tizimlarining shakllanishiga zamin yaratgan. Uchinchidan, Afrosiyob va Ko‘ktepa kabi markazlar urbanizatsiyaning moddiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. To‘rtinchidan, hunarmandchilik va savdo shahar iqtisodiyotini mustahkamlab, shaharlarning mintaqaviy ahamiyatini oshirgan⁷⁴.

Shu bilan birga, Sug‘d urbanizatsiyasining o‘ziga xos jihati shundaki, bu yerda shahar markazlari irrigatsiya, dehqonchilik va voha ichidagi iqtisodiy integratsiya bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan. Demak, Sug‘d shahar madaniyatining genezisini tushuntirishda tashqi siyosiy omillardan ko‘ra ichki xo‘jalik-iqtisodiy va ijtimoiy omillarga ko‘proq e’tibor qaratish zarur.

Xulosa

Sug‘dda shaharsozlik madaniyatining shakllanishi uzoq va murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, uning asosida Zarafshon vohasining qulay tabiiy-geografik sharoiti, sug‘orma dehqonchilikning rivoji, irrigatsiya tizimlarining murakkablashuvi, hunarmandchilik va savdoning taraqqiyoti hamda siyosiy markazlashuvning kuchayishi yotadi. Afrosiyob va Ko‘ktepa yodgorliklari ushbu jarayonning miloddan avvalgi I ming yillik boshlaridayoq

⁷² Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002

⁷³ Маршак Б.И. Материалы по истории и культуре Согда. – Москва.

⁷⁴ Буряков Ю.Ф. Древний Самарканд и проблемы ранней урбанизации Согда. – Ташкент.

shakllanganini ko‘rsatadi. Samarqand esa bu taraqqiyotning eng yirik va barqaror markaziga aylangan.

Shunday qilib, Sug‘d shaharsozlik madaniyati tashqi siyosiy ta’sir natijasi emas, balki mahalliy tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida baholanishi lozim. Mazkur xulosa Samarqand Sug‘di tarixini qayta talqin qilishda, qadimgi urbanizatsiya va davlatchilik muammolarini o‘rganishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002.
2. Буряков Ю.Ф. Древний Самарканд и проблемы ранней урбанизации Согда. – Ташкент.
3. Шишкин В.А. Афрасиаб – древний Самарканд. – Москва: Наука.
4. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва.
5. Гулямов Я.Г. История орошения Узбекистана с древнейших времен до наших дней. – Ташкент.
6. Сулейманов Р.Х. Проблемы древней культуры Согда и Бактрии. – Ташкент.
7. Маршак Б.И. Материалы по истории и культуре Согда. – Москва.
8. Grenet F. Regional interaction in Central Asia and Sogdian urban culture studies.
9. Rapin C. Archaeological studies on Samarkand Sogd and Koktepa.
10. Тереножкин А.И. Материалы по археологии Афрасиаба и ранней истории Самарканда. – Москва.